

Umumta'lim maktabning 2025-2026 o'quv yili 11-sinf o'quvchilarining
astronomiya fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va
topshiriqlar varianti


11-__ sinf o'quvchisi

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: ____ (maksimal ball: 50)

1-BSB

1. Yulduzlarning xaritalari ham geografik xaritalar kabi ko'pincha yulduzlarning tekislikdagi proyeksiyasi ko'rinishida ishlanadi. Bunday xaritalardan biri quyidagi rasmda keltirilgan.



a) Yulduz xaritasidagi egri chiziq nima bilan belgilanadi?

- A) Galaktika tekisligi
- B) Osmon ekvatori
- C) Ekliptika
- D) Meridian

Javob: _____

b) Xaritada 0° og'ish ($\sigma = 0^\circ$) chizig'i nimani bildiradi?

Javob: _____

2. Toshkentning geografik uzunligi $\lambda_T = 69^\circ$ sharqiy. Grinvichda soat 12:00 bo'lsa, Toshkentda soat nechada bo'ladi? Jadvaldagi ma'lumotdan foydalaning.

Yoy o'lchamida	360°	15°	1°	$15'$	$1'$	$15''$
Vaqt o'lchamida	24^h	1^h	4^m	1^m	4^s	1^s


Javob: _____

3. Agar kuzatuvchi Ekvator ustida ($\varphi = 0^\circ$) joylashgan bo'lsa, Quyidagi fikrlarning qaysilari to'g'ri?

- 1) Olam qutbi gorizontda joylashadi
- 2) Olam qutbi zenitda joylashadi
- 3) Olam qutbining balandligi 90° bo'ladi
- 4) Olam ekvatori gorizont bilan ustma-ust tushadi

Javob: _____

4. a) Moslikni toping




Oy fazasi nomi	Rasm raqami
1. Astronomik yangioy	A. 1
2. Birinchi chorak fazasi	B. 7
3. To'lin oy	C. 5
4. Oxirgi chorak fazasi	D. 3

Javob: _____

@test_uz_ru

b) Quyidagi 1–5 raqamlar bilan berilgan tushunchalarni A–E harflar bilan berilgan ta'riflar bilan moslang.

Tushuncha	Ta'rif
1. Osmon ekvatori	A. Kuzatuvchi joylashgan nuqtaning tepasidagi eng baland nuqta
2. Zenit (Z)	B. Yer ekvatorining osmon sferasidagi proyeksiyasi
3. Osmon meridiani	C. Quyosh yoki yulduzning osmondagi sutkalik harakat yo'li
4. Gorizont tekisligi	D. Shimol va janub nuqtalarini birlashtiruvchi chiziq o'tgan aylana
5. Sutkalik parallel	E. Kuzatuvchi joylashgan joyni ajratuvchi tekislik; ko'rish chegarasi



Javob: _____

5. Oy planetamiz Yerning tabiiy yo'ldoshi. Oyning sinodik davri taxminan 29,5 sutka ekanligini bilamiz. Agar bugun to'lin oy bo'lsa:

a) Qancha sutkadan keyin yangi oy fazasiga o'tadi?

b) Oy birinchi chorakdan to'lin oyga yetishi uchun qancha vaqt kerak bo'ladi?

c) Agar Oy 5-sutkada birinchi chorak bo'lsa, 20-sutkada u qanday fazada bo'ladi?

Test-uz.ru